

**QADIMGI SHARQ MADANIYATI DAVRIDA O'ZBEK XALQ
CHOLG'ULARINING SHAKLLANISHI**

*Buxoro davlat universiteti
Musiqo ijrochiligi va madaniyat
kafedrasи o'qituvchisi
Mansur Karimov*

Annotatsiya

Ushbu maqolada qadimgi sharq madaniyati davrida o'zbek xalq cholg'ularining shakllanishi va takomillashuvi xususida so'z boradi. Bundan tashqari o'zbek xalq cholg'u asboblarining tarkibiga kiruvchi har bir cholg'ularga alohida-alohida to'xtalib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье говорится о становлении и совершенствовании узбекских народных инструментов в период древней восточной культуры. Кроме того, отдельно затронут каждый инструмент, входящий в состав узбекских народных музыкальных инструментов.

Annotation

This article talks about the formation and improvement of Uzbek folk instruments during the period of ancient eastern culture. In addition, each instrument that is part of Uzbek folk musical instruments will be separately touched upon.

Kalit so'zlar: surnay, xushtak, shiqildoq, chiltor, qonun, ud, rud, chag'ona, burg'u, doira, nog'ora, lyutnya.

Mustaqil O'zbekistonning porloq kelajagini bunyod etuvchi, Vatan istiqboli uchun o'z ulushini qo'shuvchi har bir inson madaniy jihatdan boy, ruhan go'zal bo'lish kerak. Ozod yurtimizning ravnaqi va kelajagi yoshlarga bog'liq. Milliy ma'naviyat va ma'rifat yangidan ko'z ochayotgan bir davrda milliy mafkuramizni rivojlantirishda yoshlarga umrboqiy musiqa san'ati orqali har tomonlama ta'lim-tarbiya berishimiz kerak. Bunda, albatta, oila, bog'cha, mакtab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining roli beqiyosdir. Shaxsning rivojlanishiga salmoqli va samarali ta'sir ko'rsatadigan, madaniyatini yuksaltiradigan muhim omillardan biri musiqiy ta'lim-tarbiya ekanligi hozirgi kunda hech kimga sir emas. Chunki musiqa kishini xushfazilatli, samimi, ziyrak, ko'ngilchan, yuksak axloqiy fazilatli hamda ma'naviy madaniyat egasi bo'lib etishishiga yordam beradi. Insonning kamolotga y etishishida musiqaning bag'oyatda kuchli ta'siri faqat shu kunlardagina emas, balki odamzot taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaqqol namoyon bo'lib kelgan. Boy musiqiy merosimiz, o'zbek milliy cholg'u asboblarida ijro etilib kelingan musiqalar, maqomlar

va xalq qo'shiqlari bir necha asrlardan buyon xalqni ma'naviy jihatdan yuksaltirishd ek olижаноб vazifani bajarib k elmoqda.

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati o'z taraqqiyotining ko'p asrlik an'anlarini meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. 1933-yilda Ayratam shahristoni arxeologik qazilmalarida topilgan materiallar, qadimiy adabiy manbalar o'zidan ilgari turli musiqa asboblari bo'lganligidan dalolat b eradi. Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XI-ning yillikda dunyoga kelgan deb taxmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Chunki eng qadimgi m ehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq. Keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ayniqsa, ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas, go'zal holatni vujudga keltirar edi.

Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, xushtak, yana biroz o'tgach esa nay (bo'ylama, ko'ndalang, ko'p yo'lli) naysimon xushtaklar, shiqildoqlar, chiltorlar (arfa, lira) yasaldi. Vaqt o'tib u cholg'ular yanada takomillanib (ko'p yo'lli, shuningdek zamonaviy ko'p teshikli) naylar yuzaga keldi. So'ngroq torli-mizroqli va torli-kamonchali musiqa cholg'ulari paydo bo'ldi.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog'ida o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarini tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobuzlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib kelgan.

Quldarlik tuzumi davrida bizgacha yetib kelgan Marokand, Niso, Tuproqqa'l'a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog'ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg'ularning tasvirlari topildi. Quldarlik jamiyat O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular ham takomillashdi.

XX asrning 30-40 yillarda uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar natijasida O'rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan xalq cholg'ulari o'rganishda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay, rubobsimon cholg'ular, hozirgi doiraga o'xshash dombra va shu singari cholg'ularni chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan haykallardir.

Bular Afrosiyob, Tuproqqa'l'a, Ayratam kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari: tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, rud, chag'ona, chiltor, nay, burg'u, surnay, karnay, doirasimon cholg'ularida mashq qilishlari tasvirlangan.

Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va m ehnat faoliyatiga singib, jamiyat ijtimoiy xayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Bayramlarda, madaniy

marosimlarda ayniqsa, karnay, surnay, doira, nog‘ora kabi urma zarbli musiqa cholg‘ulari keng qo‘llanilgan. Musiqa madaniyatining o‘ziga xos xususyaitlaridan biri shunda ediki, cholg‘uchilar nafaqat bir n echa turdagи musiqa asboblari chala olganlar, balki o‘zlari ham musiqa bastalay olganganlar. Cholg‘uchilar o‘z davrining etuk musiqachilari va shoirlari ham bo‘lishgan. O‘rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu erda ustoz shogirdga o‘rgatish an’analari qaror topib rivojlandi. Ayni paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san’antining asosiy ko‘rinishlari shakllanib cholg‘u asboblarining yangi namunalari kashf etilishi ham o‘sha uzoq davrlarga borib taqaladi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san’ati tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, ular o‘z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida atroflicha ma’lumot b erganlar. Abu nasr Forobiyning (873-950) “Katta musiqa kitobi” (“Kitob al -musiqa al-kobir”), Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) “Davolash kitobi” (“Kitob ush-shifo”) qomusidagi “Musiqa haqidagi risola” kitoblarida, Al-Xorazmiyning (X-asr) “Bilimlar kaliti”, Abduraxmon Jomiyning (1414-1492) “Musiqa haqida risola” kitoblarida ijrochilik va xalq cholg‘ulari haqida muhim ma’lumotlar bayon etilgan. Safiuddin al Urmaviyning (1216-1294) “Oliyjanoblik haqida kitob” yoki “Sharafiya kitobi”da ayniqsa xalq cholg‘ulari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Safiuddin al Urmaviy iste’dodli ud cholg‘uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmiya shaxrida tug‘ilgan. Safiuddinning eng katta yutug‘i lad (modus) larni mukammal sist emasini ishlab chiqqanligidadir. Ibn Zaylinning (1044-yilda vafot etgan) “Musiqa haqida to‘liq kitob”i («Kigob ul fikh-musiqiy») uning musiqa ilmidagi yagona va beباho kitobidir. U yangi usulni, ya’ni musiqada ladlarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi.

Shuni aytish kerakki, sharq musulmon olamida maqom tizimlari yuzaga kelishi uchun zarur omillar IX-X asrlarga kelib jamul-jam bo‘lgan edi. Zéro, aynan shu davrlarda aniq fanlar rivojlandi, vatandoshimiz Abu Nasr Farobiyning (871-950) musiqashunoslikdagi buyuk xizmatlari o‘larоq Sharq musiqailmiga asos solindi, kasbiy musiqa amaliyoti yangi bosqichga yuksaldi, shuningdek diniy-falsafiy ta’limot va qarashlar yoyila boshladi. Ana shu bevosita va bilvosita omillar ta’sirio‘larоq o‘rta asr Sharqining yirik (markaziy) shaharlarida o‘n ikki maqom tizimi yuzaga kelgan edi. Mazkur tizim tasnifoti dastlab Safiuddin Urmaviy va Qutbiddin Sheroyiylarning musiqailmiga doir asarlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, keyingi asrlarda Abdulqodir Marog‘iy (XIV), Abdurahmon Jomiy, Zaynulobidin Husayniy (XV), Najmaddin Kavkabiy (XVI), Darvishali Changiy (XVI-XVII) kabi ustoz amaliyotchi va nazoratchi olimlar tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi.

Abduqodir Marog‘iy (XV-acp) Ozarbayjonning Marog‘ shahrida tug‘ilgan bo‘lsa, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida - Samarqandda o‘tgan va Xirotda

vafot etgan. «Musiqa ilmida ohanglar t o‘plami» («Jami al- alxan fi-ilm al-musiqiy») risolasida musiqa haqidagi ta’limot kamonchali, yetti torli g‘ijjak kabi bir turdagи musiqa cholg‘ulari borligi haqidagi ma’lumotlar bilan boyitdi. Al-Husaynning (XV-asr) musiqiy qonunlarga asosan, O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqa cholg‘usi - dutor haqida ma’lumot berilgan. Qutbiddin al Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo‘lib, o‘z risolasida kamonchalik tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozini musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb t’kidlagan. XVII- asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o‘z risolasidagi tanbur, qonun, ud, rud, kobuz, g‘ijjak, kungura kabi musiqa cholg‘ulari haqida bat afsil ma’lumot b ergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg‘ularini o‘rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muxammad Forobiyning mashhur asari - «Musiqa haqida katta kitob» («Kitob al- musiqa al-kabir») ulkan ahamiyatga ega. O‘rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo‘sish san’ati) va cholg‘ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg‘ularining jamiyat hayotidagi rolini o‘rganishga ahamiyat beradi va u: «Jangu - jadallarda, to‘y-tomoshalarda, ko‘ngil ochar bazmlarda hamda ishq-muhabbat qo‘sishqlarini kuylashda chalinadigan o‘ziga xos cholg‘ular bor», - deb yozgan edi.

Allomaning yuqorida keltirilgan fikri cholg‘ularning turli-tumanligi va ularning nafaqat saroy a’yonlari, balki shahar va qishloq aholisi hunarmandlari orasida, shuningd ek musiqa madaniyatida yetakchi rol o‘ynaganligini tasdiqlaydi. Forobiy torli-mizrobbi lyutnyani o‘sha davrda eng keng tarqalgan cholg‘u hisoblagan. Lyutnya o‘ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lad) lar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg‘u ko‘pgina sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelinayapti (zamonaviy ud na’munalari Toshkent Davlat konservatoriyasining sohaviy-tajribaviy sinovxonasiда mavjud). Musiqa haqidagi katta kitobda Forobiy yana bir cholg‘u asbobi -tanburni ham ta’riflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirmash) udga eng yaqin turadigan cholg‘ulardan biridir. Tanburda torlar noxun yordamida ch ertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq s evgan cholg‘udir. Tanburning ikki yoki uch j ez tori bo‘lgan. Uning ikki turi ma’lum: Xuroson va Bog‘dod tanbo‘rining maqomlari kamroq (beshta), cholg‘u dastasi kaltaroq bo‘lgan. Xuroson tanbo‘rining maqomlari ko‘p bo‘lgan, dastasi cholg‘u bo‘g‘zidan to dastaning yarmigacha oralig‘ida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha o‘z shaklini yo‘qotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholg‘usi sifatida amaliyotda foydalanib k elinyapti. Forobiy shuningdek nayni ham ta’riflaydi. U turli xil damli musiqa cholg‘ularini ovoz hosil qilish printspiga ko‘ra naysimonlar guruhiga kiritadi, ya’ni nay quvurida havoning damli harakati orqali tovush hosil bo‘ladi. Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo‘nalishda joylashgan ko‘p t eshikli nay. Bu turdagи bo‘ylama

naylar yoki turlichalatuvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vietnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizzg'a, ojarkayjonlar ney (juda kam uchraydi), (cho'ponlarning cholg'u asbobi), o'zbeklar nay deb ataydilar.

Olim ko'pincha o'rik yoki tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham to'xtaladi. Forobiy shuningd ek, dunay (mizmar) ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usi gosha - dilli dyuk (qo'sh qamish naychadan tuzilgan cholg'u)ga o'xshaydi. Forobiy risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lган rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o'xshab rezonator va ancha uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo'lган: 1-yog'och dekali va asosiy qismi yog'ochdan, 2 - pastki qismi charmdan ishlangan.

Forobiy shahodat berishicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lган, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovush qatorga ega bo'lган. Risolada ta'riflangan barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Forobiyning guvohlik berishicha ud cholg'usi ansambl ijrochiliga yetakchi rol o'ynagan.

«Cholg'u asboblari haqida kitob»da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularini udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi.

Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soldi. Inson ovozi azaldan eng mukammal cholg'u hisoblangan. Torli-mizrobli yoki torli - kamonchali musiqa cholg'ulari ijrochilar hamisha o'zları yaratgan kuylar ohangini inson ovoziga yaqinlashtirishga, bunda o'zgacha bir musiqiylikka erishishga, ohangni ta'sirliroq, samimiyroq, ravonroq chiqarishga erishilgan. Olim ohangi inson ovoziga juda yaqin turgan cholg'ular ud va rubobni batafsil ta'riflagan. Bunda rubob tushunchasi ostida g'ijjakka o'xshagan, torlari kamoncha bilan chalingan musiqa asboblari nazarda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Liviye. O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi. "Bilim". T., - 2005y. – 159 b
2. Sh. Rahimov, A. Lutfullayev. Cholg'ulashtirish. "Musiqa". T., - 2010y. – 120 b.
3. Петросянц А. Инструментоведение (узбекские народные инструменты). Ташкент. 1980, 1990
4. Берлиоз Г. О современной инструментовке и оркестровке. I—II т. М., 1972.